



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI	18
Nazarov G'ayrat Xayrullayevich	
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI.....	22
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI SAMARALI QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	27
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI	32
Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ УЧЕТА И АУДИТА ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ.....	37
Пулатова Мадина Бейсеновна	
Табаев Азамат Зарипбаевич	
MAJBURIYATMI YOKI MAJBURIY RISK? MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR KONSEPTUAL ASOSLARINING IQTISODIY TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINLARI.....	42
Palvanov Xusniddin Bekimmatovich	
ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В СИСТЕМЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	47
Пу Кебин	
TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI BARQARORLIK NUQTAYI NAZARIDAN O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	51
Xodjaniyazov Elbek Sardorovich	
VILOYAT SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI KO'P OMILLI EMPIRIK MODELLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH (Qashqadaryo viloyati misolida)	57
Avazova Nafisa Namazovna	
SANOAT KORXONALARI SHOVQINI VA ATMOSFERA CHIQINDILARINING TURAR-JOY HUDUDLARI EKOLOGIYASIGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI	61
Saparova Shohida Abduvaliyevna	
SANOAT SHOVQINI VA ATMOSFERA IFLOSLANISHINING SHAHAR TURAR JOY HUDUDLARI VA EKOLOGIYASIGA TASIRINI O'RGANISH.....	65
Shaxyusupova Nilufar Erkin qizi	
BARQAROR SHAHAR RIVOJLANISHIDA SANOAT OQOVA SUVLARINI BIOLOGIK TOZALASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI.....	69
Tursunova Aziza Asrorovna	
SHAHAR EKOLOGIK MUHITIGA SANOAT KORXONALARINING TA'SIRINI BAHOLASH.....	75
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	78
Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna	
KORXONALARDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	87
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	93
Nasimov Ravshanjon Azimovich	



KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	100
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna	
THE IMPACT OF DIGITAL LITERACY ON LABOR PRODUCTIVITY IN UZBEKISTAN'S SERVICE SECTOR: A REGRESSION ANALYSIS.....	106
Ismoilov Elyorjon Makhamadali Ugli	
Urinov Bobur Nasilloevich	
EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	112
Gapparov Sarvar Xolmurodovich	
ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI	116
Djumayeva Guzal Axtamovna	
Yadgarova Madina Xasan qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA BANK SOHASIDAGI KIBERJINOYATLAR: TAHLIL, TAHDID VA MUHOFAZA MEKANIZMLARI	120
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	
ПРОБЕЛЫ В МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ СОВМЕСТНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ТРАНСГРАНИЧНЫХ РЕК ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ БАСЕЙНА АРАЛЬСКОГО МОРЯ).....	126
Тиллахуджаев Аббосхон	
Дилфуза Шакирова	
Мухамедалиева Сайёра	
Ойбек Камилов	
ALOQA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI VA BAHOLASH USULLARI	139
Xazratov Abror Panjiyevich	
STRATEGIC HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES.....	146
Sultonboyeva Munira Bahodirovna	
Sultanova Kamila Muktorali Kizi	
TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI.....	154
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Nomozov G'ofur Abdusalomovich	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI: STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYA VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH	158
Izbosarov Bobur Baxriddinovich	
Umirov Sherzod Baxriddinovich	
INTEGRATION OF TRADE MARKETING AND E-COMMERCE: COMBINING ONLINE AND OFFLINE SALES CHANNELS	162
Mamatkulova Shoira Jalolovna	
AHOLIGA SAVDO XIZMATLARI KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	168
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
Jurayev Suxrobjon Saloxiddin o'g'li	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	177
Маматкулова Шоира Джалоловна	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЛОГИСТИКИ В РАЗВИТИИ КОММЕРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТОРГОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	184
Маматкулова Шоира Джалоловна	



SUN'YIY INTELLEKT VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING BANK SOHASIDA INTEGRATSIYASI XUSUSIYATLARI VA TAHLILI	191
Jurayeva Sevara Zakirovna	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRLARINI BAHOLASH MASALALARI.....	197
Tursunboyev Umarbek	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ОЦЕНКЕ НЕДВИЖИМОГО ИМУЩЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА	202
Мирджалилова Дилдора Шухратовна	
Мансурова Сайёра Бахтиёрвна	
БАНК ТИЗИМИ БАҲҚАРОРГИНИ ТАЪМИНЛАШ ВОСИТАЛАРИ ВА УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	213
Ж.О.Баходиров	
О'ЗБЕКISTON AGRAR SUG'URTA BOZORIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING XAVFLARNI BOSHQARISH VA BARQARORLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI.....	219
Kodirova Samira Kamol qizi	
PERSONALISED OFFERS IN DIRECT MARKETING: IMPACT ON SALES AND CUSTOMER LOYALTY.....	225
Mamatkulova Shoira Djalolovna	
TURIZM INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AQLLI TURIZM KONSEPSIYASI.....	231
Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USLUBIY ASOSLARI	237
Shohruzbek Ruziyev	
MARKETING MIX FOR SERVICE COMPANIES: ADAPTATION OF CLASSIC MODELS TO SERVICE MARKETING	244
Mamatkulova Shoira Djalolovna	
15-16 YOSHLI TAEKVONDOCHILARNING KOMPLEKS TAYYORGARLIGI DINAMIKASI.....	250
Tashmatov Sherzod Rixsibayevich	
TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	256
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Mamanov Isroil Islom o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA XARAJATLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Toshimov Azizbek Hakimovich
SamISI "Buxgalteriya hisobi" kafedrası assistenti
ORCID: 0000-0003-4835-8768
E-mail: tsohimovazizbek@gmail.com

Mamanov Isroil Islom o'g'li
SamISI 2m-bh-121 guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tijorat banklarining moliyaviy natijalari shakllanishi tahlil qilinadi. Daromadlar tarkibi foizli daromadlar, komission tushumlar, valyuta operatsiyalari va boshqa operatsion daromadlar sifatida tasniflanadi. Xarajatlar esa foizli, operatsion, ma'muriy-boshqaruv xarajatlari va majburiy to'lovlar guruhlariga ajratiladi. Bank faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida daromad va xarajatlar tuzilmasini optimallashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, moliyaviy nazorat mexanizmlari hamda xalqaro audit standartlari asosida bank risklarini boshqarish jarayonlari baholanadi. Keltirilgan xulosalar tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda operatsion faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bank riski, moliyaviy nazorat, audit standartlari, moliyaviy barqarorlik, tijorat banki, daromadlar va xarajatlar.

Abstract

This article analyzes the formation of financial results in commercial banks. Revenues are classified as interest income, commission receipts, foreign exchange operations, and other operating income. Expenses are grouped into interest, operating, administrative, and mandatory payments. The study examines revenue and expense optimization to improve overall banking efficiency. It evaluates bank risk management processes based on strict financial control mechanisms and professional audit standards. The findings support ensuring the financial stability and improving the operational activities of modern commercial banks.

Keywords: bank risk, financial control, audit standards, financial stability, commercial banks, revenues and expenses.

Аннотация

В данной статье анализируется формирование финансовых результатов в коммерческих банках. Доходы классифицируются как процентные доходы, комиссионные поступления, доходы от валютных операций и прочие операционные доходы. Расходы сгруппированы на процентные, операционные, административно-управленческие расходы и обязательные платежи. Исследование рассматривает оптимизацию структуры доходов и расходов для повышения эффективности банковской деятельности. Также оцениваются процессы управления банковскими рисками на основе механизмов финансового контроля и стандартов аудита. Представленные выводы способствуют обеспечению финансовой устойчивости и совершенствованию операционной деятельности коммерческих банков.

Ключевые слова: банковский риск, финансовый контроль, стандарты аудита, финансовая устойчивость, коммерческий банк, доходы и расходы.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari mamlakat moliya tizimining eng muhim institutlaridan biri sifatida iqtisodiyotda pul mablag'lari harakatini tashkil etish, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning vaqtincha bo'sh mablag'larini jalb qilish, kreditlash jarayonlarini amalga oshirish, hisob-kitob operatsiyalarini bajarish hamda moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bank tizimining barqarorligi esa, avvalo, tijorat banklarining daromad olish qobiliyati, xarajatlarni oqilona boshqarishi va



moliyaviy natijalarining haqqoniy shakllanishi bilan bog'liqdir.

Tijorat banklarida daromad va xarajatlar bank faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasini belgilovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Daromadlar bankning kredit, investitsiya, komission, valyuta va boshqa operatsiyalari orqali shakllansa, xarajatlar depozitlar bo'yicha foiz to'lovlari, jalb qilingan resurslar qiymati, operatsion xarajatlar, ma'muriy xarajatlar, soliqlar, amortizatsiya va boshqa majburiy to'lovlar bilan bog'liq bo'ladi.

Bank daromadlari va xarajatlarning noto'g'ri hisobga olinishi bank foydasi, rentabelligi, kapital yetariligi, likvidligi va moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlarining buzib ko'rsatilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli tijorat banklarida daromad va xarajatlar auditini samarali tashkil etish nafaqat buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot sifatini oshirish, balki bank faoliyatida xatoliklar, suiiste'mollar, noto'g'ri tasniflash va risklarning oldini olishda ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida bank operatsiyalarining hajmi keskin ortib bormoqda. Masofaviy bank xizmatlari, mobil ilovalar, plastik kartalar, onlayn to'lov tizimlari, elektron kreditlash va raqamli depozit xizmatlarining kengayishi bank daromadlari va xarajatlari tarkibida ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim ilmiy manbalarda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda daromadlar va xarajatlar ustidan tizimli audit olib borish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Shu jihatdan daromad va xarajatlar auditini takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy iqtisodiy yondashuvlarda bank daromadlari ko'proq foizli va foizsiz daromadlar sifatida tasniflanadi. Foizli daromadlar kreditlar, depozitlar, qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy aktivlardan olinadigan daromadlarni o'z ichiga olsa, foizsiz daromadlar komission xizmatlar, hisob-kitob operatsiyalari, valyuta ayirboshlash, kafillik, maslahat xizmatlari va boshqa bank operatsiyalaridan shakllanadi. Xarajatlar esa jalb qilingan resurslar qiymati, operatsion xarajatlar, xodimlar mehnatiga haq to'lash, texnologik xarajatlar, amortizatsiya, soliqlar va ehtimoliy zararlar bo'yicha zaxiralar bilan bog'liq bo'ladi.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda tijorat banklarida daromad va xarajatlarni tahlil qilish hamda audit jarayonlarini takomillashtirish masalalari alohida o'rganilmoqda. Xususan, ayrim maqolalarda tijorat banklarida daromad va xarajatlarni tahlil qilish hamda audit jarayonlarini takomillashtirish masalalari maxsus tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, boshqa ilmiy manbalarda ham banklarda daromad va xarajatlar audit moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida baholanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tayyorlashda tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, mantiqiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash va normativ-huquqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini tijorat banklarida buxgalteriya hisobi, audit, moliyaviy tahlil va bank nazoratiga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi. Metodologik jihatdan daromad va xarajatlar audit bank moliyaviy natijalarining haqqoniyligini ta'minlovchi nazorat vositasi sifatida ko'rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida daromadlar bank faoliyati natijasida shakllanadigan moliyaviy tushumlar majmuini ifodalaydi. Ular bankning asosiy operatsiyalari va qo'shimcha xizmatlari natijasida vujudga keladi. Daromadlar bank faoliyatining barqarorligini ta'minlash, jalb qilingan resurslar qiymatini qoplash, operatsion xarajatlarni moliyalashtirish va yakuniy foydani shakllantirishda muhim manba hisoblanadi.

Bank daromadlari tarkibida odatda foizli daromadlar yetakchi o'rinni egallaydi. Foizli daromadlar kreditlar, banklararo depozitlar, investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar va boshqa foiz keltiruvchi aktivlar bo'yicha olinadigan tushumlardan iborat. Tijorat banklari kredit operatsiyalari orqali real sektor, tadbirkorlik subyektlari va aholiga moliyaviy resurslar taqdim etadi. Ushbu kreditlar bo'yicha olinadigan foizlar bank daromadlarining muhim qismini tashkil etadi.

Foizsiz daromadlar esa bank xizmatlarining diversifikatsiyasini aks ettiradi. Bunga plastik karta xizmatlari, pul o'tkazmalari, hisob-kitob operatsiyalari, valyuta ayirboshlash, kafolat va akkreditivlar, maslahat xizmatlari, masofaviy bank xizmatlari va boshqa komission tushumlar kiradi. So'nggi yillarda raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi natijasida komission daromadlar ulushi ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bank xarajatlari esa bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan pul mablag'lari sarfini ifodalaydi. Ular depozitlar va boshqa jalb qilingan resurslar bo'yicha foizli xarajatlar, xodimlar mehnatiga haq to'lash, ijara, amortizatsiya, axborot texnologiyalari xarajatlari, reklama, xizmat safarlari, soliqlar, zaxiralar va boshqa operatsion xarajatlardan iborat bo'ladi.



Daromad va xarajatlar o'rtasidagi nisbat bankning moliyaviy natijasini belgilaydi. Agar bank daromadlari xarajatlardan yuqori bo'lsa, bank foyda oladi. Aksincha, xarajatlar daromadlardan ortib ketgan taqdirda bank zarar ko'radi. Shuning uchun daromad va xarajatlar auditining asosiy maqsadi ushbu ko'rsatkichlarning to'g'ri shakllanganligini, hujjatlar bilan tasdiqlanganligini va moliyaviy hisobotlarda haqqoniy aks ettirilganligini aniqlashdan iborat.

Daromad va xarajatlar auditining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bank daromadlari va xarajatlarning to'liq va haqqoniy hisobga olinganligini tekshirish.
2. Daromad va xarajatlarning tegishli hisobot davriga to'g'ri kiritilganligini aniqlash.
3. Foizli va foizsiz daromadlar bo'yicha hisob-kitoblarning to'g'riligini baholash.
4. Foizli, operatsion va ma'muriy xarajatlarning iqtisodiy asoslanganligini tekshirish.
5. Daromad va xarajatlar bo'yicha ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash.
6. Moliyaviy natijalarning haqqoniy shakllanganligini aniqlash.
7. Audit natijalari asosida bank xarajatlarini optimallashtirish va daromadlar bazasini diversifikatsiya

qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Daromad va xarajatlar auditini faqat xatolarni aniqlash bilan cheklanmasligi kerak. U bank boshqaruvi uchun tahliliy axborot berishi, foyda shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashi va moliyaviy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi zarur.

Tijorat banklarida daromad va xarajatlar auditini bo'yicha mavjud muammolar: Tijorat banklarida daromad va xarajatlar auditini takomillashtirish zarurati bir qator amaliy muammolar bilan bog'liq.

Birinchi muammo — bank daromadlarining yuqori darajada foizli daromadlarga bog'liqligidir. Kredit operatsiyalaridan olinadigan foizlar bank daromadlarining asosiy qismini tashkil etsa, bank kredit risklariga kuchli bog'lanib qoladi.

Ikkinchi muammo — xarajatlarning ayrim turlarini optimallashtirish mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligidir. Banklarda axborot texnologiyalari, filiallar tarmog'i, xodimlar soni, marketing, binolarni saqlash va ma'muriy xarajatlar hajmi ortib borishi mumkin. Agar ushbu xarajatlar ustidan audit nazorati kuchli bo'lmasa, bank rentabelligi pasayadi.

Uchinchi muammo — ichki audit tekshiruvlarida ba'zan riskka yo'naltirilgan yondashuvning yetarli qo'llanilmasligidir. An'anaviy audit ko'proq hujjatlarni tekshirishga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy bank auditini risklarni oldindan aniqlash va ularni kamaytirishga yo'naltirilishi lozim. Ichki auditni takomillashtirish bo'yicha ilmiy manbalarda ham banklarda ichki audit faoliyatini tashkil etish, uning mavjud kamchiliklari va takomillashtirish yo'llari muhim masala sifatida ko'rib chiqilgan.

To'rtinchi muammo — audit jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi barcha banklarda bir xil emasligidir. Bank operatsiyalari hajmi millionlab tranzaksiyalarni tashkil qiladigan sharoitda faqat qo'lda tanlab tekshirish usuli yetarli samara bermaydi. Shu sababli avtomatlashtirilgan audit dasturlari, ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt elementlari va real vaqt rejimidagi monitoring tizimlarini qo'llash zarur.

Beshinchi muammo — daromad va xarajatlarning noto'g'ri tasniflanishi yoki moliyaviy hisobotlarda noto'g'ri aks ettirish ehtimolidir. Masalan, ayrim xarajatlar operatsion xarajat sifatida emas, boshqa xarajatlar tarkibida aks ettirishi mumkin. Yoki kelgusi davrga tegishli daromad joriy davr daromadi sifatida tan olinishi mumkin. Bunday holatlar bank moliyaviy natijasining haqqoniylikiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Daromad va xarajatlar auditini takomillashtirish yo'nalishlari: Tijorat banklarida daromad va xarajatlar auditini takomillashtirish ko'p yo'nalishli va kompleks jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon bankning ichki nazorat tizimi, buxgalteriya hisobi, risk-menejment, axborot texnologiyalari, korporativ boshqaruv va tashqi audit bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi lozim.

Birinchi yo'nalish — auditni riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishdir. Bunda auditorlar eng yuqori risk mavjud bo'lgan operatsiyalarni birinchi navbatda tekshirishi kerak. Masalan, yirik kreditlar bo'yicha foiz daromadlari, muddati o'tgan kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar, yuqori xarajat talab qiluvchi ma'muriy shartnomalar, valyuta operatsiyalari va filiallar xarajatlari alohida tahlil qilinishi lozim.

Ikkinchi yo'nalish — daromad va xarajatlar bo'yicha ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirishdir. Har bir daromad va xarajat turi bo'yicha mas'ul shaxslar, tasdiqlash tartibi, hujjatlar aylanishi, limitlar va monitoring tizimi aniq belgilanishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining nizomiga ko'ra, bankning barcha operatsiyalari va tarkibiy bo'linmalari ichki auditorlik tekshiruv doirasiga kiradi. Demak, daromad va xarajatlar auditini ham bankning barcha bo'linmalarini qamrab olishi zarur.

Uchinchi yo'nalish — audit jarayonlarini raqamlashtirishdir. Raqamli texnologiyalar yordamida auditorlar katta hajmdagi operatsiyalarni tezkor tahlil qilishi, noodatiy tranzaksiyalarni aniqlashi, xarajatlarning keskin oshishini kuzatishi va daromadlar bo'yicha og'ishlarni avtomatik ravishda aniqlashi mumkin. Ayrim ilmiy manbalarda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida banklarda daromad va xarajatlar auditini takomillashtirish zarurligi alohida qayd etilgan.



To'rtinchi yo'nalish — daromadlar diversifikatsiyasi ustidan audit nazoratini kuchaytirishdir. Agar bank daromadlarining asosiy qismi faqat kredit foizlariga bog'liq bo'lsa, bu bankning risk darajasini oshiradi. Shuning uchun auditorlar foizsiz daromadlar, komission xizmatlar, raqamli xizmatlardan tushumlar va boshqa daromad manbalarining rivojlanishini baholashi lozim. Bu bank daromad bazasining barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchi yo'nalish — xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha audit tavsiyalarini kuchaytirishdir. Auditorlar xarajatlarni faqat tekshiribgina qolmay, ularning samaradorligini ham baholashi kerak. Masalan, filial xarajatlari ularning daromadlari bilan solishtirilishi, xodimlar xarajatlari mehnat unumdorligi bilan bog'lanishi, IT xarajatlari esa raqamli xizmatlar samaradorligi bilan tahlil qilinishi lozim. Banklarda daromad va xarajatlarni auditini takomillashtirish uchun hisob tizimini yaxshilash kabi chora-tadbirlar taklif etilgan manbalar ham mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarida daromad va xarajatlar auditini takomillashtirish bank moliyaviy barqarorligini ta'minlash, foyda va rentabellik ko'rsatkichlarini haqqoniy baholash, moliyaviy hisobotlar ishonchligini oshirish hamda bank faoliyatidagi risklarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Daromad va xarajatlar bank faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasini shakllantiruvchi asosiy ko'rsatkichlar bo'lgani sababli ularning auditini chuqur, tizimli va riskka yo'naltirilgan tarzda tashkil etish zarur.

Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Tijorat banklarida daromad va xarajatlar auditini riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilishi lozim.
2. Foizli daromadlar, komission daromadlar, valyuta operatsiyalaridan tushumlar va boshqa daromadlar bo'yicha alohida audit metodikasi ishlab chiqilishi kerak.
3. Foizli, operatsion, ma'muriy va boshqa xarajatlarning samaradorligini baholash uchun "xarajat–natija" tahlilidan foydalanish maqsadga muvofiq.
4. Audit jarayonlariga raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari va ma'lumotlar tahlili vositalari keng joriy etilishi zarur.
5. Ichki audit xizmati mustaqilligini kuchaytirish va uning bank kengashi oldidagi hisobdorligini oshirish lozim.
6. Daromadlar diversifikatsiyasi va xarajatlar optimallashtirilishi bo'yicha auditorlik tavsiyalarining amaliy ijrosini nazorat qilish kerak.
7. Auditorlarning bank operatsiyalari, xalqaro audit standartlari, raqamli audit va risk-menejment bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish zarur.
8. Ichki va tashqi audit o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali moliyaviy hisobotlar ishonchligini oshirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. — Toshkent: O'zbekiston, 2023. — 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. Yangi tahriri: 2019-yil 5-noyabr, O'RQ–580-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
3. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni. — 2016-yil 13-aprel, O'RQ–404-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — 14.04.2016.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2020-yil 12-may, PF–5992-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. 2021-yil 16-aprel, 3/2-son; Adliya vazirligida 2021-yil 7-mayda 3302-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
6. Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. — Pearson Education, 2017.
7. Fayziyev Sh.N., Do'smurotov R.D., Karimov A.A., Qo'ziyev I.N., Avloqulov A.Z. Audit. Darslik. — T.: Iqtisod-moliya, 2015.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>